

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RASULOV JAMSHID SHOKIR O‘G‘LI

IQTISODIY O‘SISHNI DINAMIK STOXASTIK MODELLAR ASOSIDA
TADQIQ ETISH

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferti
mundarijasi**

Содержание диссертации доктора философии (PhD)

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy on economic
sciences**

Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li

Iqtisodiy o‘sishni dinamik stoxastik modellari asosida tadqiq etish 3

Расулов Жамшид Шокир угли

Исследования экономического роста на основе динамических стохастических
моделей 29

Rasulov Jamshid Shokir ugli

Studying economic growth based on dynamic stochastic models..... 58

E’lon qilingan ishlar ro‘xati

Список опубликованных работ

List of published works 63

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RASULOV JAMSHID SHOKIR O‘G‘LI

IQTISODIY O‘SISHNI DINAMIK STOXASTIK MODELLAR ASOSIDA
TADQIQ ETISH

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2868 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) web-sahifasining www.tdiu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiyrahbar:

Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiyopponentlar:

Tashmatov Shuhrat Xamrayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraximova Saida Axmadjanovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchitashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "___" soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-27; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" ____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" ____ dagi ____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish jarayonlarini dinamik stoxastik umumlashtirilgan modellar (DSGE) asosida tadqiq etish, makroiqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarni chuqur tahlil qilish, iqtisodiy shoklarning ta'sirini modellashtirish hamda samarali iqtisodiy siyosat yuritish uchun ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu modellar orqali biznes sikli, monetar siyosat, fiskal chora-tadbirlar va tashqi iqtisodiy ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlarni real vaqtida baholash va prognoz qilish imkonini yaratiladi. Xalqaro valyuta Fondi sayti ma'lumotiga ko'ra, "global iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 2022-yilda 3,2 %, 2023-yilda esa 2,7 %ga tushgani va 2024-yilda 3,1 % hamda 2025-yilda esa iqtisodiy o'sish darajasi global ravishda 3,2 %lik barqaror ko'rsatkichni namoyish etishi hisob-kitoblar natijasida bashorat qilinayapti. Lekin, ushbu o'sish sur'ati iqtisodiy tahlilchilar naznida ijobiy deb qaralmayapti. Bu ko'rsatkichlar 2001-yildan beri global moliyaviy inqiroz va COVID-19 pandemiyasidan tashqari eng past ko'rsatkichlar sanaladi"¹. Bu xavotirli pasayish sur'atlari butun dunyo hamjamiyatini iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladigan sabablarini chuqurroq o'rganishga va vaziyatni yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga doimiy undamoqda. Shu bois, DSGE modellaridan foydalanish global miqyosda barqaror o'sishni ta'minlash, siyosiy xatarlarga nisbatan adaptiv reaksiya mexanizmlarini shakllantirish hamda iqtisodiy tahlilni ilmiy darajada mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi kunda jahon ilm-fanida iqtisodiy o'sishni dinamik stoxastik umumlashtirilgan modellar (DSGE) asosida tadqiq etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari qatoriga raqamli iqtisodiyot va mehnat bozori o'rtasidagi aloqalarni modellashtirish, pul-kredit va fiskal siyosatning uzoq muddatli ta'sirini baholash, nomutanosibliklar va asimmetriyalar sharoitida iqtisodiy agentlar xulq-atvorini inobatga olgan mikroasoslangan modellarni takomillashtirish kabi masalalar kiradi. Shuningdek, global shoklar (jumladan, geosiyosiy nizolar, pandemiyalar, energetika inqirozlari) ta'sirini o'rganish va mamlakatlararo DSGE modellarini integratsiyalash orqali xalqaro iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini baholash ham dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar makroiqtisodiy siyosatni ratsionallashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham, boshqa mamlakatlar singari iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning ortidan aholi farovonligini yaxshilash, mamlakatda yetarli ish o'rnlari va aholi uchun qulay yashash infratuzilmasini yaratish davlat iqtisodiyoti oldidagi asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotiga qaraganda, respublikada 2024-yil hisobiga ko'ra kambag'allik darajasidanpastda yashovchi fuqarolar soni 15,2 %ni tashkil qilib, bu jami aholining qariyb6 mln nafarini qamrab oladi. Shu sababdan, ushbu holatni yanada yumshatish, iqtisodiyot soha va tarmoqlarining o'sishga bo'lgan ta'siri va iqtisodiyotni barqarorlik

¹<https://www.imf.org/en/Publications/WEO> - Xalqaro valyuta fondi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan yozilgan.

holatidan chiqaradigan omillarni aniqlash va ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish yo‘nalishlarini izlab topish va kerakli ssenariylar asosida rivojlanish yo‘llarini topish va kelajak uchun ishonchli prognozlarni ishlab chiqish masalalari mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 23-dekabrdagi PF-223-son “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 8-apreldagi PF-101-sonli “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va ularning prognozlarini amalga oshirish, iqtisodiy o‘sish jarayonidagi turli bosqichlarning chuqurlashgan tahlili hamda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash masalalari A.Smit, V.Leontiv, R.Solou, R.Harrod, A.Lyus, R.Lukas, L.Valras, D.Rikardo, J.M.Keyns, R.Harrod, P.Aghion, P.Hovitt, Barro Robert va B.Bernanke, A.Sen, D.Acemoglu, J.A.Robinson, Loionel McKenzie, David Gale, Hukukane Nikaido, E.Helpman kabi olimlarning² ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida bu borada V.Mau, A.Vavilov, T.Sinyavskaya, S.Guriyev, A.Auzan, K.Aytzhan, A.Kairbekov singari olimlar³ tadqiqot olib borganlar.

² Leon Valras. Elements of theoretical economics or the theory of social wealth., p 118-131; Adam Smith. An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations//An electronic classics series publication. The Pennsylvania State University – 2005; R.M.Solow. “Growth theory: an explosion”, Oxford university press. New York and Oxford. 1970; R. F. Harrod. An Essay in Dynamic Theory, The Economic Journal, Vol. 49, No. 193 (Mar., 1939), pp. 14-33; Daron Acemoglu., James A.Robinson., Why nations fail. 2012; Daron Acemoglu., Introduction to modern economic growth. Massachusetts institute of technology. April, 2017. – 255 p.; Adam Smith. An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations//An electronic classics series publication. The Pennsylvania State University – 2005; R.F. Harrod. An Essay in Dynamic Theory, The Economic Journal, Vol. 49, No. 193 (Mar., 1939), pp. 14-33; R.M.Solow. “Growth theory: an explosion”, Oxford university press. New York and Oxford. 1970; Milton Friedman. Capitalism and Freedom. 4th Anniversary Edition. The University of Chicago Press Chicago and London. 2002.; Loionel McKenzie. Classical general equilibrium theory. 2002. MIT press.

³ MayB., Стародубровская И. 1998а. Экономические закономерности революционного процесса // Вопросы экономики. 1998. N 4.; Вавилов А., Поманский А., Трофимов Г. и др. Финансовый кризис и

Iqtisodiy o'sishni dinamik jihatdan hamda barcha sohalarning hamohangligida umumiy muvozanat hosil qilgan holda o'rganish masalalari P.Romer, K.Arrow, D.Cass va K.Shell, O.Blanchard, A.Marshall, T.Piketty, N.Blum, D.Acemoglu singari olimlarning ilmiy izlanishlarida keng o'rin olgan⁴.

Boshqa mamlakat olimlari kabi iqtisodiy o'sish va dinamik stoxastik modellari asosida iqtisodiy o'sishni o'rganish masalalari respublikamizdagi bir qancha iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari predmeti bo'lib kelmoqda. Ular qatoriga, mamlakatimizning taniqli iqtisodchi olimlari hisoblangan S.S.Gulyamov, M.N.Mahmudov, B.B.Berkinov, A.O'lmasov, B.A.Begalov, A.Vaxabov, Sh.Shodmonov, X.P.Abulqosimov, D.K.Axmedov, A.Sh.Bekmurodov, U.A.Madraximov, H.A.Hakimov, M.A.Mamatov, I.J.Jahongirov, Sh.R.Xamdamov kabi olimlar kiradi⁵.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-uslubiy manba hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, muallif fikricha, ko'pchilik hozirgi tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishni o'rganishda qisman muvozanatga erishish usullari tadqiq etilgan. Ammo, iqtisodiyotni bir butun holatda, stoxastik jarayonlarni inobatga olib balanslashgan o'sishga erishish yo'llariga oid ilmiy nazariyalar yetarli emas. Shuningdek, hozirgi tahlikali va kuchli iqtisodiy raqobatli dunyoda o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun ham barcha sohalar uchun yagona muvozanatlilikni ta'minlashga olib boradigan metodologik ko'rsatmalar va ilmiy-uslubiy manbaalar zarurdir. Yuqorida qayd etilgan masalarni mamlakatimiz iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etish zarurati mavzuni tanlashga asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida "Mamlakatlarga xos

государственный долг. // М.: Институт финансовых исследований, 1999.; Татьяна Геннадьевна Синявская "проблемы экономического развития и управление" научная статья, 2022. No 3. С. 71—79.; Гуриев С.М. Мифы экономики: Заблуждения и стереотипы, которые распространяют СМИ и политики. 2009. – 296 с.; А.А. Аузан. Колея и маятник: влияние ловушки предшествующего развития на динамику институциональных изменений. ВТЭ №1, 2022, с. 24—47.

⁴P.Romer. Increasing returns and long-run growth // Journal of political economy, 1986, vol.94; K.Arrov, G.Debreu. Existence of an equilibrium for a competitive economy // Econometrica, vol.22, No.3, 1954, 265-290; G.Dumenil va D.Levy. Thomas Piketty's economics: modelling wealth and wealth inequality; D.Acemoglu. Theory, general equilibrium and political economy in development economics. //Journal of economic perspectives. Vol.24, No.3, 2010, 17-32 p.; N.Bloom. The impact of uncertainty shocks. // Econometrica, Vol.77, No.3, 623-685.

⁵ Mahmudov N.M., Hakimov H.A., Iqtisodiy o'sish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlillarda foydalanish yo'llari // Iqtisod va moliya –T.: 2016 yil No.3. 2-8 b.; B.B.Berkinov. Institusional iqtisodiyot //Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" – T.:2021 yil; O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariysi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya.; Vaxobov A. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashni metodologik jihatlari// ilmiy va amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2016 y; Abulqosimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. T.: "Akademiya", 2011y; Hakimov H. O'zbekistonda makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish. //TDIU. 2021 y;// Mahmudov.N.M., Hakimov H.A. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash - barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti. Iqtisodiyot va ta'lim. 2017 y, №2. 7-11b.; M.A.Mamatov., Iqtisodiy o'sish // O'quv qo'llanma, T-2021, 384 b; U.A.Madraximov. Iqtisodiy o'sish sifati omillarining ilmiy-uslubiy asoslari. Maqola. 2016. Iqtisodiyot va Moliya №7, 23-32 b. // I.J.Jahongirov. The importance of investments in modernising industry of Uzbekistan. International journal of research in social sciences.Vol.9, February, 2019 y. 711-729 p.// Xamdamov Sh.R. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda iqtisodiy o'sishning jadal omillarini faollashtirish. – Avtoreferat, T.: 2022 y.

xatarlarni tasniflash tizimi”dagio‘rnini baholashning O‘zbekiston uchun “milliy modeli”ni ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Dissertatsiya ishidan ko‘zlangan maqsad iqtisodiy o‘sishni dinamik stoxastik modellari asosida tadqiq etish orqali ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiy o‘sish jarayonini tahlil qilishda dinamik stoxastik modellaridan foydalanishning zarurati va stoxastiklik tushunchasining iqtisodiy mohiyati, shakllari, xususiyatlari hamda uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

dinamik stoxastik umumiy muvozanat modellarining (DSGE) xususiyatlari, uning komponentlari va foydalanish metodologiyasini yoritib berish va uning O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga chuqurroq tatbiq etish;

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi iqtisodiy o‘sish holati va uning hajmini yillar oralig‘ida taqqoslash;

O‘zbekistonda asosiy iqtisodiy o‘sish omillari va ularning bir-biriga uzviy bog‘liqligini dinamik stoxastik modellar asosida tahlil qilish va joriy iqtisodiy vaziyatni sharhlash;

DSGE modellari asosida makroiqtisodiy shoklarni aniqlash va salbiy shoklarni yumshatish bo‘yicha ssenariylar ishlab chiqish va mavjud ssenariylarni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

dinamik stoxastik umumiy muvozanat modellari asosida O‘zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining o‘rta muddatli proqnozlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt sifatida O‘zbekiston Respublikasi asosiy iqtisodiy o‘sish omillarini ta‘minlovchi faoliyat sohalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti umumiy muvozanatga erishish ortidan iqtisodiy o‘sishga erishish yuzasidan kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tarkibiy va qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik-iqtisodiy tahlil, ekonometrik tahlil va proqnozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli trayektoriyasi nafaqat resurslar va texnologiyaga, balki ijtimoiy-iqtisodiy institutlarga bog‘liqligini tadqiq etish asosida dinamik umumiy muvozanat modellari mulkchilik huquqlari, qonun ustuvorligi, korrupsiya darajasi kabi institutsional omillarni kiritish asosida takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra iqtisodiy o‘sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham barqaror bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan umumiy muvozanat modelidan foydalangan holda, iqtisodiy o‘sishning barqarorligini baholash uchun ekologik ta’sir, ijtimoiy tenglik, resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi taklif etilgan;

dinamik stoxastik umumiy muvozanat modelidan foydalangan holda iqtisodiy inqirozlarga tayyorgarlik ko‘rish va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish mexanizmi iqtisodiy o‘sishning qisqa va uzoq muddatli omillari, shu jumladan, fiskal siyosat va tashqi savdo shoklarining ta’sirini tahlil qilish hamda iqtisodiyotdagi davriy tebranishlar (jahon narxlarining o‘zgarishi yoki global iqtisodiy inqirozlarning ta’siri) va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini bashorat qilish orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish omillari orasidagi variatsiya hisob-kitoblari hamda shoklarning ta’siri natijasida dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli asosida YaIM, inflyatsiya va asosiy stavkaning 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli iqtisodiy o‘sish modellari o‘rtasidagi farq va ularning o‘ziga xos xususiyatlari taqqoslab chiqilgan;

umumiy muvozanat modellaridan bir qancha zamonaviylari o‘rganib chiqilgan va ular orasidan DSGE (dinamik stoxastik umumiy muvozanat) modeli metodologiyasi, xususiyatlari va uning tarkibiy tuzilishi o‘rganilib tahlil vositasi sifatida qo‘llanilgan;

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining iqtisodiy tahlili amalga oshirilgan va ularning dinamikasi tahlil qilingan;

umumiy muvozanatlikka erishishda omillar o‘rtasidagi variatsiya ko‘rsatkichlari hisoblangan, turli shoklar aniqlangan va asosiy iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari prognozlari DSGE modellari yordamida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Ilmiy tadqiqot ishidagi nazariy va amaliy statistik ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, prognoz ko‘rsatkichlarini ekonometrik usullar vositasida ilmiy asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani va olingan natijalarning yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati iqtisodiy o‘sish jarayonlarini tahlil qilishda umumiy muvozanatlilik vositasini inobatga olish jarayonlarida vujudga keladigan muammolarni oldini olish uchun kerak bo‘lgan metodologiyani hozirgi zamon talablari va iqtisodiyotni liberallashtirish maqsadlariga mos ravishda takomillashtirish, rivojlantirish va boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi statistika milliy qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan ilmiy hamda amaliy natijalarni iqtisodiy o‘sishni yanada jadalroq ta’minlashga qaratilgan qarorlar, dasturlar va chora-tadbirlarni islab chiqish hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Bunga qo‘sishmcha ravishda, tadqiqot natijalaridan “Makroiqtisodiyot”, “O‘rta makroiqtisodiyot”, “Iqtisodiy statistika”, “Iqtisodiy o‘sish”, “Ekonometrika” fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv dasturlari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiy o'sishni dinamik stoxastik modellari asosida tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli trayektoriyasi nafaqat resurslar va texnologiyaga, balki ijtimoiy-iqtisodiy institutlarga bog'liqligini tadqiq etish asosida dinamik umumiy muvozanat modellari mulkchilik huquqlari, qonun ustuvorligi, korrupsiya darajasi kabi institutsional omillarni kiritish asosida takomillashtirishga oid nazariy uslubiy materiallardan oliv ta'limning 70310103-Makroiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan "O'rta makroiqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdag'i 97-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy natijalardan o'quv adabiyotlarida foydalanish iqtisodiy o'sishni umumiy muvozanat asosida kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham barqaror bo'lishini ta'minlashga qaratilgan umumiy muvozanat modelidan foydalangan holda, iqtisodiy o'sishning barqarorligini baholash uchun ekologik ta'sir, ijtimoiy tenglik, resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirishga oid nazariy uslubiy materiallardan oliv ta'limning 70310103-Makroiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan "O'rta makroiqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 11-martdag'i 97-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy natijalardan o'quv adabiyotlarida foydalanishiqtisodiy islohotlarning natijadorligini sifat jihatidan klassifikatsiya qilishga xizmat qilgan;

dinamik stoxastik umumiy muvozanat modelidan foydalangan holda iqtisodiy inqirozlarga tayyorgarlik ko'rish va ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish mexanizmi iqtisodiy o'sishning qisqa va uzoq muddatli omillari, shu jumladan fiskal siyosat va tashqi savdo shoklarining ta'sirini tahlil qilish hamda iqtisodiyotdagi davriy tebranishlar (jahon narxlarining o'zgarishi yoki global iqtisodiy inqirozlarning ta'siri) va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini bashorat qilish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 14-maydag'i 04/26-1-2-10648-sonli ma'lumotnomasi). Bu ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi omillarni aniqlash va davlat budgeti samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish omillari orasidagi variatsiya hisob-kitoblari hamda shoklarning ta'siri natijasida dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli asosida YaIM, inflyatsiya va asosiy stavkaning 2030-yilga qadar ishlab chiqilganprognoz ko'rsatkichlaridan 2025–2027-yillar uchun "Budgetnoma"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 14-maydag'i 04/26-1-2-10648-sonli ma'lumotnomasi). Bu ilmiy taklifning amaliyatga joriy etilishi kelgusi yillar uchun asosiy makroiqtisodiy indikatorlar proqnozlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy taklif va tavsiyalari ma’ruzalar shaklida 3 ta xalqaro hamda 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalari bo‘yicha chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda, 6 ta tezis, shundan, 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-anjumanlarida nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 betni tashkil qiladi.

DISSEBTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishqismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dinamik stoxastik modellarining ilmiy-nazariy asoslari va ularning iqtisodiy o’sishni tahlil qilishdagi o‘rni**” deb nomlangan birinchi bobida stoxastiklik tushunchasi, uning asosiy shakllari, tamoyillari zarurati, iqtisodiy o’sish va dinamik stoxastikliko‘rtasidagi bog‘liqliklar, iqtisodiy o’sishni dinamik stoxastik modellar asosida tadqiq etish bo‘yicha xalqaro amaliy tajribalar, shuningdek, DSGE (Dynamic stochastic general equilibrium-Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli)ning mohiyati, shartlari va foydalanish metodologiyasi ilmiy-uslubiy jihatdan izohlab berilgan.


Iqtisodiyotda stoxastiklik – atamasini boshqacha so‘z bilan “ehtimollilik” atamasi bilan ham almashtirish mumkin. Stoxastiklik, deyarli barcha soha va jarayonlarda mavjuddir. Stoxastiklik iqtisodiy hodisa va jarayonlarning aniq miqdorini prognoz qilish imkonini yo‘qligini, yoki boshqacha so‘z bilan aytganda iqtisodiy jarayonlarga kutilmagan tasodifiy omillarning aralashib ta’sir qilib qolishi ko‘zda tutiladi. Bunga yaqqol misolni 2020-yilgi COVID-19 pandemiyasini misol qilib olishimiz mumkin. Ushbu stoxastik jarayon deyarli barcha mamlakatlarda ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlarini yo‘qqa chiqardi va iqtisodiy pasayishga sababchi bo‘ldi. Stoxastiklik iqtisodiyotda yagona davrda sodir bo‘lmaydi, balki har doim ma’lum vaqt davomidagi iqtisodiy hodisa va jarayonlar natijasida sodir bo‘ladi.

Stoxastik jarayonlar iqtisodiy o’sish jarayoni tahlillarida ko‘plab omillarning dinamik xususiyatlari tahlillarida qo‘llaniladi. Ya’ni, iqtisodiy o’sish omillarini tahlil qilinayotgan davr mobaynidagi tebranishlarining sabablarini tadqiq etish imkonini yaratadi. Masalan, tahlil davri mobaynida yalpi talabning kamayishiga

qaysi ichki va tashqi omillar sabab bo‘ldi yoki investitsiya hajmi qisqarishi nima evaziga sodir bo‘ldi kabi savollarga omillarning dinamik xususiyatidan kelib chiqib stoxastik jarayonlarga e’tibor qaratish javob beradi.

Iqtisodiyotda odatda makroiqtisodiy tahlil jarayonlarida stoxastiklikni o‘z ichiga olgan bir qancha modellar qo‘llaniladi. Ular bir-biridan tahlil obyekti va omillari bilan farq qiladi. Ular qatoriga DSGE (dynamic stochastic general equilibrium – dinamik stoxastik umumi muvozanat) modeli, stoxastik o‘sish modeli, RBC (real business cycle –haqiqiy biznes sikli) modeli, stoxastik dinamik dasturlashtirish modellari, MDPs (Markov decision proceses – Markov qarorlar jarayoni), Search models (qidirov modellari), Stochastic OLG (stochastic overlapping generations) modeli, ABMs (agent based models) modeli, Black-Scholes modeli, Environment and resource economics models (atrof-muhit va resurslar itisodiyoti modeli) kabi stoxastik jarayonlarni o‘z ichiga olgan modellar kiradi. Quyida har bir model xususiyatiga alohida to‘xtalib o‘tiladi va ushbu modellardan foydalanib olib borilgan tadqiqotlar sharhi ham quyida muhokama qilinadi.

Stoxastiklikning umumi muvozanati natijasida iqtisodiy o‘sishga erishish masalasi Leon Valras va Arrov va Debryu kabi olimlar izlanishlarida muhokama qilingan. Valras fikriga ko‘ra, mamlakat ichidagi barcha bozorlar muvozanat holatida bo‘lsa, unda yakka bozor zarur holatda muvozanatda bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Kennez Arrov va Jerald Debryu 1954-yilda o‘zlarining iqtisodiyotda umumi muvozanatni ta’minalashga qaratilgan modellarini yaratishdi. Ularning modelida iqtisodiyotda barcha tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab va uning taklifi teng bo‘lishi uchun umumi muvozanatga erishish yo‘llari tushuntiriladi.



1-rasm. Umumi muvozanat tushunchasini institutsional omillar asosida takomillashtirish⁶

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, umumi muvozanat boshqacha so‘z bilan iqtisodiy ta’sirlarni baholash deb ham ataladi. Biror bir investitsiya loyihasining iqtisodiy ta’sirini baholaydigan bo‘lsak, har doim umumi ko‘lamda umumi muvozanat yuzaga keladi. Ya’ni, ushbu loyiha qancha ish o‘rinlarini yaratilishiga olib keldi yoki uning natijasida ishsizlik darajasi qanday o‘zgardi? Uning eksportga ta’siri qanday? Natijada u yalpi ichki mahsulot hajmiga qanday o‘zgarish qiladi? Bularning barchasini umumi muvozanat deb qarashimiz mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, bir iqtisodiy agentning harakati boshqa agentlarga qanday ta’sir qilishini baholashdir.

Umumi muvozanat bozor aloqalarini tushunish uchun ideal va nazariy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Lekin, amaliyotda osongina ideal natijaga erishish qiyin. Shu sababli, institutsional omillar (mulkchilik huquqi, normalar, qonun ustuvorligi va korrupsiya)ga kuchli munosabat iqtisodiyotda shartnomalar va mulk huquqlarini kuchaytirgan holda muvozanat barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Barqaror institutsional normalar iqtisodiy barqarorlikka (sustainability) erishish yo‘lidagi iqtisodiy xatarlarni yumshatadi va muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Umumi muvozanatlik bizning tadqiqot natijamiz bo‘yicha iqtisodiy ta’sirlarni baholash vositalaridan hisoblanib mavjud iqtisodiy tizim uchun yagona, samarali, turli shoklarni inobatga olgan va barcha omillarning uzviy muvozanatlari va barqaror holda turishi va aholi farovonligini ta’minlashidir.

Biz dissertatsiyamizning tadqiqot usuli vositasi sifatida DSGE modelini tanlab olganmiz. Dinamik stoxastik umumi muvozanat modellari iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlarni oqilona, shaffof va aniq qilib baholashda ishlatiladigan va boshqa umumi muvozanat modellari bilan taqqoslaganda iqtisodiy olimlar tomonidan ko‘p foydalaniladigan asosiy o‘rinda turadigan iqtisodiyotni baholash vositalaridan biridir. Ushbu model turli xil qisqartmalarga egadir, masalan **DSGE, SDGE va DGE** kabi. Ularning barchasi bir xil ma’noni anglatishini bilish zarurdir.

Ushbu model tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, u ancha katta va murakkab jarayondir. DSGE modeli “yangi makroiqtisodiy sifat” deb atalgan yangi Keynscha modelning asosi hisoblanadi (2005–2007-yillar atrofida). Ushbu modelni tanishtirish va amaliyotga olib kirish anchalar qiyin bo‘lgan chunki, model 1995-yildan beri rivojlanish bosqichini boshidan o‘tkazgan va birinchi mashhur rasmiy DSGE modeli 2002-yilda iqtisodchilar Smets va Vouters tomonidan tuzilgan. Ushbu modelni tuzishga hissa qo‘shgan boshqa vakillar sirasiga quyidagi tadqiqotchilar kiradi: Marko Del Negro, Lavrense Kristiano, Martin Eichenbaum, Jordi Gali, Tommaso Monakelli va Frank Shorfeide⁷.

DSGE modellarining asosiy xususiyati quyidagilardan iboratdir:

ushbu model bizga ma’lum bir iqtisodiyot uchun yagona va to‘liq muvozanatni topishga yordam beradi;

⁷ Valdivia, Daney., “Handbook on DSGE models: some useful tips in modeling a DSGE models”, MPRA paper No.61654, posted January 2015., page 5-7.

u bizga o'tmish, kelajak, hozirdagi, ya'ni butun davrdagi hamda yagona yildagi ta'sirlarni aniqlashga yordam beradi;

ko'p hollarda ular mikroasosga egadir;

shuningdek, ushbu model yordamida tizimli prognozlarni amalga oshirish mumkin;

prognoz qilinadigan siyosat va joriy real siyosatni baholash va ushbu siyosatni empirik ma'lumotlar bilan taqqoslash imkonini beradi;

DSGE modeli yordamida iqtisodiy jarayonlar o'rtasidagi sabab va oqibatlarni tushunish mumkin.

DSGE modeli kutilmagan siyosiy shoklar haqiqiy YaIMni keskin ravishda oshirib yoki tushirib yuborishi mumkinligini ham inobatga oladi.

Yuqoridagi metodologik ilmiy-uslubiy ko'rsatmalar keyingi boblardagi tahlillarni amalga oshirishda asosiy vazifani bajaradi.


Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni dinamik stoxastik modellari asosida tahlil qilish va modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi holati va uning o'sishini asosiy omillari tahlili, O'zbekistonda iqtisodiy o'sish darajasi va tarkibini umumiy muvozanat modellari yordamidagi baholashlari hamda iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda DSGE modelining tatbiqi va uni O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llash xususiyatlari bo'yicha tizimli tavsiyalar ishlab chiqilgan va ilmiy xulosalar bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishga qaratilgan Prezident qarorlari va strategiyalari asosida so'ngi yillarda iqtisodiy o'sish ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib kelmoqda. Respublikada so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarning deyarli barchasi chuqur va puxta o'ylangan uzoq va qisqa yillik rejalar yordamida amalga oshirilayapti. Shu jumladan, mamlakatimizda 2017-yildan buyon iqtisodiy islohotlar strategiyalar asosida amalga oshirilayapti. Ularning barchasida turli iqtisodiy rejalar bayon qilingan.

Mamlakatda 2024-yil yakuniy statistikaga ko'ra, ushbu yildagi YaIM hajmi 1454,5 trillion so'mga teng bo'ldi va bu o'sish oldingi yil bilan taqqoslaganda 6,5 % o'sishga teng bo'ldi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi 2024-yilda 39131,4 ming so'mni (yoki 3092,7 AQSh dollarini) tashkil qilgan. Ushbu hajmdagi YaIMni tashkil qilishda yetakchi o'rinnlarda xizmatlar sohasi (qariyb 657,3 trillion so'm) va sanoat sohasi (365,8 trillion so'm) yetakchi o'rinni egallab turibdi. Bir so'z bilan, respublika iqtisodiyotining asosiy sohalari deb xizmat ko'rsatish, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarini aytishimiz mumkin⁸.

2024-yil yakuniga ko'ra, YaIM hajmi 115 mlrd dollarni tashkil qildi va YaIMning fizik hajmi 12% lik o'sishni namoyish qildi. Bu natija, qayta moliyalashtirish stavkasining 13,5 %ga tushirilganligi, tovarlar eksport hajmining o'tgan yilga nisbatan oshganligi va import hajmining qisqarganligi, inflyatsiya darajasining biroz pasayganligi hamda davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan qiymatining kamayganligi bilan izohlash to'g'ri bo'ladi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida yozildi.



2-rasm. O'zbekistonning asosiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi dinamikasi, (%da)⁹

Yuqoridagi statistikalarni sifat jihatidan baholash va ularning iqtisodiy o'sishga qay darajada ta'sir ko'rsatganligini baholash iqtisodiy nuqtayi nazardan o'ta muhim hisoblanadi. Shu sababli ham, umumiy muvozanat modellariga murojaat qilishimiz zarur bo'ladi.

Iqtisodiy o'sish darajasini baholash ananaviy tarzda YaIM, YaMD, HDI, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, ish bilan bandlik darajasi, iste'mol narxlari indeksi, savdo balansi kabi bir qancha ko'rsatkichlarni tahlil qilishga tayanadi. Hozirgi murakkab iqtisodiy tizimli davrda iqtisodiy o'sishning barqarorlik holatini baholshda yanada murakkablashgan baholash me'zonlarini ishlab chiqish zarurdir. Quyidagi jadvalda muallif tomonidan iqtisodiy o'sishning barqarorligini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi umumiy muvozanat modellari xususiyatlaridan kelib chiqib ishlab chiqildi. Ko'rsatkichlar iqtisodiy o'sishga ta'siri jihatidan va iqtisodiy o'sishning natijadorlik yoki sabab omillari jihatidan ham qo'shimcha klassifikatsiya qilindi. Ushbu ko'rsatkishlar tizimi: I. An'anaviy va iqtisodiyotning real sektori ko'rsatkichlari (miqdoriy/natijadorlik), II. Fiskal va monetar ko'rsatkichlar (miqdoriy/sabab), III. Yashil iqtisodiyot darajasi, ekologik va resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari (sifat/sabab), IV. Demografik va mehnat resurslari dinamik ko'rsatkichlari (miqdoriy/sabab), V. Institutsional ko'rsatkichlar (sifat/sabab), VI. Ijtimoiy tenglik va farovonlik ko'rsatkichlari (sifat/natijadorlik), VII. Innovatsion va texnologik ko'lam ko'rsatkichlari (sifat/sabab), VIII. Madaniy – iqtisodiy ko'rsatkichlar (sifat/natijadorlik), IX. Tashqi dunyo bilan aloqadorlik ko'rsatkichlari (miqdoriy/sabab) kabi guruhlardan iborat. Ammo, ushbu ko'rsatkichlar guruhidan hozirgi kunda eng dolzarblaridan biri III, VI – ko'rsatkichlar guruhidir, Quyida ushbu ko'rsatkichlarning detallashgan tarkibini keltiramiz.

Iqtisodiy o'sish omillarini ushbu shaklda klassifikatsiyalash iqtisodiy o'sish tahillarini kuchaytirish, xalqaro baholash mezonlariga o'tish va YaIM ishlab chiqarish jarayonini faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatidan ham mustahkamlanishiga olib keladi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Iqtisodiy o'sishning barqarorligini (sustainability) baholash
ko'rsatkichlari¹⁰**

Yo'nalishlar/ko'rsatkichlar	Iqtisodiy o'sishga ta'siri	Iqtisodiy o'sishning natijadorlik/sabab omili
III. Yashil iqtisodiyot darajasi, ekologik va resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari		
Iqtisodiy birlikka to'g'ri keladigan chiqindi, tabiiy boyliklar kamayish indexi, ekologik adolat darajasi, ekologik ongли iste'molchilar ulushi, yashil iqtisodiyotga kiritilgan shaxsiy va davlat investitsiyalari hajmi, "Yashil" davlat xarajatlari ulushi, ekologik soliqlarning joriy qilinishi va uning darajasi, "yashil" kasblardagi ishchilar soni, sanoat sohalarida kam zaharli gazlar chiqaruvchi va energiya tejamkor texnologiyalarning hajmi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan energiya ulushi, qayta ishlov berilgan chiqindi suvlar hajmi (m/kub), qayta ishlangan chiqindi hajmi, aholi quyosh panellari orqali ishlab chiqargan energiya hajmi, yashil savdo hajmi (%), yashil patentlar soni, eko-turizmdagi turistlar soni, yashil iqtisodiyotning yaim ga qo'shgan hissasi (%);	Sifat	Sabab
VI. Ijtimoiy tenglik va farovonlik ko'rsatkichlari		
raqamli tenglik indeksi, jamoaviy resurslardan foydalanish tengligi, inkluziv iqtisodiy boshqaruv darajasi, madaniy ishtirok darajasi, aholining o'rtacha oylik daromad darajasi, kambag'allik darajasi, kam ta'minlangan aholi ulushi, aholinig savodxonlik darajasi, gender tengligi, Jini koeffitsienti, hayot uzunliligi, butunjahon baxtlilik indexi;	Sifat	Natijadorlik

Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarining yuqoridagi kabi klassifikatsiya qilinishidan maqsad iqtisodiy natijalarning mukammal tahlillarini olib borishdir. Chunki, iqtisodiy o'sishning sifat omillarini aniqroq tahlil qilish, shuning bilan birga iqtisodiy o'sishning sabab va natijaviy omillarini ham aniq tushunish iqtisodiyotning joriy holati haqida keng ko'lamli xulosalar berishga yordam beradi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash o'sishga olib kelgan omillar tarkibini o'rganishga mutlaqo bog'liqdir. Bizning dissertatsiya ishimizda iqtisodiy o'sishni aniqlashda umumiy muvozanat modellari asos qilib olingan. Shu sababli, umumiy muvozanat modellari uchun qo'llanilgan tengliklar biz uchun tahlil vositasi vazifasini bajaradi.

Biz tahlilimizni amalga oshirishda umumiy muvozanat modellari ichidan DSGE umumiy muvozanat modellarini tanlab olganimiz. Ushbu model nazariya ustida tuzilishi bilan boshqa muvozanat modellaridan farq qiladi. Ya'ni, ushbu model bir nechta nazariy tengliklarni yaxlit holda baholab, umumiy natijani, barcha tengliklar uchun barqarorlik holatini va omillar o'rtasidagi aloqadorliklarni, shuningdek, keljakni prognozlash va asosiy natijaga ta'sir qilgan shoklarni aniqlashda yordam beradi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

Dinamik stoxastik umumiy muvozanat modellarini ikki xil usulda tuzish mumkin: tog'ri chiziqli va egri chiziqli. Modelning qaysi turda tuzilishi tenglamalar parametrlariga bog'liqdir. Ushbu muvozanat modellarini baholashda modelda qatnashadigan o'zgaruvchilarni guruhab olish turli ikkilanishlardan qochishga yordam beradi.

Modelda qatnashuvchi o'zgaruvchilar: ichki o'zgaruvchilari, holat o'zgaruvchilari (tashqi), shoklar.

Dastlabki tahlilimizni Yangi Keyscha modelni qo'llashdan boshlaymiz. Undagi tenglamalar asosiy e'tiborini ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar, inflyatsiya va asosiy stavka qiymatlariga qaratadi va monetar tahlilni olib borishda samarali hisoblanadi. Uning tenglamalari quyidagichadir:

$$p_t = \beta E_t(p_{t+1}) + \kappa x_t \quad (1)$$

$$x_t = E_t(x_{t+1}) - \{r_t - E_t(p_{t+1}) - g_t\} \quad (2)$$

$$r_t = \psi p_t + u_t \quad (3)$$

$$u_{t+1} = p_u u_t + \epsilon_{t+1} \quad (4)$$

$$g_t = p_g g_t + \xi_{t+1} \quad (5)$$

1-tenglik kelajakdagi kutilayotgan inflyatsiya hajmi hamda ishlab chiqarish hajmi o'zgarishidagi chiziq bog'liqligini ifodalovchi inflyatsiya tengligidir. 2-tenglik esa YaIM uzulishini bildiradi va u kutilayotgan ishlab chiqarish hajmidagi farq, haqiqiy asosiy stavka va holat o'zgaruvchisidan iboratdir. Uchinchi tenglik asosiy foiz stavkasining inflyatsiya jihatidan tuzilgan tengligidir. Shuningdek, modelda qatnashgan uchta koeffitsiyentlar κ , β , ψ , mos ravishda Fillips egri chizig'i qiyaligini, diskont omilni va foiz stavkasi inflyatsiyadagi siljishlarga qay darajada ta'sir etishini ko'rsatadi.

2-jadval

Tahlilda qatnashuvchi omillar ta'rifi¹¹

O'zgaruvchilar nomi	O'zgaruvchilar ta'rifi
Yillar	Yillar
y	YaIM o'sish hajmi
p	Inflyatsiya
r	Asosiy stavkadagi o'zgarishlar
c	Iste'mol xarajatlari
n	Ish vaqtidagi o'zgarishlar
i	Investitsiya
x	YaIM hajmidagi uzilish
w	O'rtacha ish haqi darajasining o'zgarishi
dateq	Choraklik davr

Tahlilda qatnashgan o'zgaruvchilarning dinamik sonli qiymati O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Juhon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Statista ma'lumotlar bazasi kabi ishonchli manbaalardan to'plangan.

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

Avvalambor, tahlilda qatnashadigan omillarimizni ta’riflab olamiz. Biz tahlilimizda 2010–2024-yillar oralig‘idagi choraklik davrdan foydalangan holda tahlillarimizni olib borganmiz. Jami kuzatuvlar soni 60 tani tashkil qiladi.

Keyingi bosqichda, siyosat matritsasini hisoblab chiqamiz. Quyidagi matritsada holat o‘zgaruvchisining bir birlikka oshishiga nazorat o‘zgaruvchining reaksiyasi qanday bo‘lishini ko‘rsatadi.

3-jadval

Siyosat matritsasi (Policy matrix)¹²

	Coef.	Delta-method Std. Err.	z	P> z	[95 % Coef.Interval]	
p	u	-0.8471327	0.476637	-17.77	0.000***	-0.9405517
	g	3.884302	2.97677	1.30	0.102*	-1.95006
x	u	-3.111984	1.461804	-2.13	0.033**	-5.977066
	g	6.228474	2.967974	2.10	0.036**	0.4113519
r	u	0.1175702	0.0496497	2.37	0.018**	0.0202586
	g	4.046148	3.100802	1.30	0.102*	-2.031313


*** $p<0.01$, ** $p<0.05$, * $p<0.1$

Olingen natija interpritatsiyasi shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasida choraklik ma’lumotlar asosida “u (asosiy stavkaning o‘zini muvozanatli qiymatidan og‘ishini)” holat parametrining bir birlikka oshishi, inflyatsiyaning qisqa muddatli muvozanat qiymatidan yuqori qiymatini 0.847 birlikka kamaytiryapti. Ushbu parametrning mos qiyatlari ishlab chiqarishdagi farqni 3.111 birlikka kamaytirayapti va foiz stavkasini esa 0.117 birlikka oshirishga olib kelyapti. “g (ishlab chiqarish hajmining o‘zining muvozanat nuqtasidan og‘ishi)” holat parametridagi bir birlik o‘zgarishi inflyatsiya darajasini qisqa muddatli muvozanat holatdan oshishiga olib kelyapti. Bu o‘z navbatida ishlab chiqarishdagi uzulish va foiz stavkasini ham oshishiga olib kelyapti.

Yuqoridagi yangi Keynscha inflyatsiya, YaIM mahsulotdagi uzilish va asosiy stavka o‘rtasidagi umumiy muvozanat tengliklaridan hisoblab chiqargan parametr qiyatlari yordamida keyingi testimizni amalga oshiramiz. Ichki o‘zgaruvchilar tengliklarimizda qatnashgan tashqi o‘zgaruvchilar g (YaIM uzilishiga olib ketadigan tashqi shok) va u (asosiy stavkaga ta’sir qiluvchi tashqi shok) dagi o‘zgarishlarga nisbatan qanday munosabat bildirishini aniqlaymiz. Buning uchun biz “impulse-response” testini bajaramiz. Ushbu “irf” testi dinamik modellarda shoklarning ma’lum bir davr oralig shokning ‘ida ichki o‘zgaruvchilarga ta’siri natijasida kelib chiqadigan ta’sirlarni baholashda va ichki o‘zgaruvchilarga ta’sirlarni vizual grafik yoki jadval ko‘rinishida tasvirlab berishga yordam beradi. “irf” grafigi odatda 2 ta o‘qdan iborat bo‘ladi: x-o‘qi (shokning davomiyligini ko‘rsatadi) va y-o‘qi (berilgan davr mobaynida darajasini ko‘rsatib beradi). Grafik statistik tomonidan ahamiyatli ekanligini grafikda berilgan ishonchlilik intervali yordamidan aniqlaymiz.

¹² Stata 18 dasturi asosida muallif hisob-kitoblari.

Ushbu grafik monetar sokning inflyatsiya, asosiy stavka va ishlab chiqarishdagi uzilishga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, monetar shok inflyatsiya, YaIM uzulishidagi farqni, shuningdek, asosiy stavkani ham kamayishiga sabab bo'lyapti. Inflyatsiya darajasi qariyb 2 %ga kamayishini ko'rishimiz mumkin. X o'zgaruvchi ham sezilarli ijobiy kamayishga uchrayapti. Ushbu natija mantiqan to'g'ri hisoblanadi. Chunki, inflyatsiyaning kamayishi haqiqiy va potensial ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi farqni ham kamaytirayapti.



3-rasm. Shoklarning model ichki o'zgaruvchilariga ta'sirini baholovchi "impusle-response" grafigi¹³

Birinchi testimiz, ya'ni Yangi Keynscha monetar testimizdan xulosa chiqaradigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida monetar shok inflyatsiyaga hamda ishlab chiqarishdagi uzulish hajmiga sezilarli ijobiy ta'sir qilayapti. Baholashlarimiz bo'yicha, inflyatsiyaning haqiqiy darajasi DSGE modeli bo'yicha qilingan birpog'ona oldingi baholashlarimizga mos ekanligi kelib chiqdi. Ushbu ijobiy natijada qisqacha O'zbekistonda monetar siyosat to'g'ri olib borayotganidan dalolat beradi.

Keyingi testimizni egri chiziqdan iborat bo'lgan Yangi Klassik model orqali davom ettiramiz. Ushbu test iqtisodchi olimlar R.King va S.Rebelolarning haqiqiy biznes sikli metodologiyasiga asoslanadi. Va ushbu tahlil usuli butun iqtisodiy faoliyatdagi vaqt-vaqt bilan sodir bo'lib turadigan iqtisodiy tebranishlar, pasayish va kengayishlarning asosiy sabablari va uning kelajakdagi oqibatlarini o'rganishda muhim sanaladi¹⁴.

Ushbu model 8 ta tenglikdan iboratdir. Ular quyidagilar¹⁵:

$$\frac{1}{c_t} = \beta E_t \left\{ \left(\frac{1}{c_{t+1}} \right) (1 + R_{t+1} - \delta) \right\} \quad (6)$$

$$\chi H_t = \frac{W_t}{c_t} \quad (7)$$

$$Y_t = C_t + I_t \quad (8)$$

$$Y_t = Z_t K_t^\alpha H_t^{1-\alpha} \quad (9)$$

¹³ Stata 18 dasturi asosida muallif hisob-kitoblari.

¹⁴ Robert G.King, Sergio T.Rebelo, Resuscitating real business cycles. 1990, p 2-20.

¹⁵ Nonlinear New Classical model, Stata 18 DSGE manual, p 55-56.

$$R_t = \alpha \frac{Y_t}{K_t} \quad (10)$$

$$W_t = (1 - \alpha) \frac{Y_t}{H_t} \quad (11)$$

$$K_{t+1} = I_t + (1 - \delta)K_t \quad (12)$$

$$\ln(Z_{t+1}) = \rho \ln(Z_t) + e_{t+1} \quad (13)$$

Model o‘z ichiga yalpi ishlab chiqarish hajmi (YaIM) (Y), iste’mol (C), investitsiya (I), ish soatlaridagi o‘zgarishlar (H), foiz stavkasi (R), haqiqiy maosh (W), kapital shoki (K) va mahsuldarlik (Z) tengliklarini oladi.

